


Yanvar –may 2018 yil


Chakana savdo tovar aylanmasi 2018 yilning yanvar – may oylarida 4270,0 mlrd. so'mni tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 4,8 foizga oshdi. Shundan umumiyligi ovqatlanish aylanmasi 95,7 mlrd. so'mni (o'tgan yilga nisbatan 122,9 foizni) tashkil etdi. Yirik korxonalarining chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi 8,6 foizni tashkil etdi.

2018 yil yanvar-may oylarida ovqatlanish tashkilotlarini qo'shgan holda, chakana savdo tovar aylanmasi va o'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'ati
(mlrd. so`m, foizda)



Chakana savdo tovar aylanmasi hajmida katta ulushga ega bo'lgan Samarqand shahri (24,6 foiz), Urgut tumani (12,7 foiz), Pastdarg'om tumani (7,6 foiz), Kattaqo'rg'on shahri (5,9 foiz) va Samarqand tumani (5,5 foiz) chakana savdo tovar aylanmasining o'sishiga ijobiy ta'sir ko'rsatdi.

Hududlar kesimida jami chakana savdo tovar aylanmasining ulushi (foizda)



Ovqatlanish tashkilotlarini qo'shgan holda, chakana savdo tovar aylanmasi aholi jon boshiga 1145,7 ming so'mni tashkil etdi (2017 yil yanvar-may oylarida 924,1 ming so'mni tashkil qilgan edi).

O'rtacha jon boshiga tovar aylanmasining eng yuqori ko'rsatkichlari Kattaqo'rg'on shahri (2892,3 ming so'm), Samarqand shahri (1983,5 ming so'm) va Bulungur tumanida (1408,8 ming so'm) kuzatildi.

Ovqatlanish tashkilotlarining chakana tovar aylanmasi hajmi 95726,8 mln. so'mni tashkil etdi. Chakana savdo tovar aylanmasining umumiyligi hajmida ovqatlanish korxonalarining ulushi 2,2 foizni tashkil etdi.

Aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi

Viloyatda aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi 1145,7 ming so'mni va o'tgan yilning shu davriga nisbatan 102,8 foizni tashkil etdi. Shundan Samarqand shahri (1983,5 ming so'm) o'tgan yilga nisbatan 105,8 foizni, Kattaqo'rg'on shahri (2892,3 ming so'm) 102,8 foizni, Jomboy tumani (793,0 ming so'm) 99,4 foizni, Samarqand tumani (976,0 ming so'm) 109,6 foizni, Urgut tumani (1125,7 ming so'm) va o'tgan yilga nisbatan 103,4 foizni tashkil qildi.




Hududlar nomi	Ming so'm	O'tgan yilning shu davriga nisbatan, foizda
Samarqand viloyati	1145,7	102,8
Samarqand sh.	1983,5	105,8
Kattaqo'rg'on sh.	2892,3	102,8
Bulung'ur	1408,8	102,6
Jomboy	793,0	99,4
Ishtixon	727,8	99,4
Kattaqo'rg'on	697,7	99,3
Narpay	823,4	99,4
Nurobod	1250,1	99,7
Oqdaryo	811,3	102,3
Payariq	783,6	99,1
Pastdarg'om	950,0	103,1
Paxtachi	1223,0	100,6
Samarqand	976,0	109,6
Tayloq	707,9	103,9
Urgut	1125,7	103,4
Qo'shrabot	1243,2	100,8

KICHIK TADBIRLIKNING CHAKANA SAVDODAGI ULUSHI

Kichik tadbirkorlikning tovar aylanmasi o'tgan yilning shu davriga nisbatan 101,2 foizni va umumiy chakana savdo tovar aylanmasining 91,4 foizini tashkil qildi.

Kichik tadbirkorlik umumiy tovar aylanmasining 2842,1 mlrd. so'mi uyushmagan savdo hisobiga to'g'ri keldi. Ushbu sektorning jami chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi 66,6 foizni tashkil etdi.



Kichik korxona va mikrofirmalarning chakana tovar aylanmasi (1058,6 mlrd. so'mni) o'tgan yilga nisbatan 99,1 foizni va umumiy chakana savdo tovar aylanmasining 24,8 foizni tashkil etdi.